



“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti

rektori

B.Abdullayev

28 ” *avgust* 2023-yil

Urganch davlat universiteti Axborot xizmati bo‘limi NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Urganch davlat universitetining (keyingi o‘rinlarda – universitet) Axborot xizmati bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – bo‘lim) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-son qarori asosida Urganch davlat universiteti Kuzatuv Kengashining 2023-yil 24-avgustdagi 3-sonli majlis bayonnomasi hamda Urganch davlat universiteti rektorining 2023-yil 30-avgustdagi 126-sonli buyrug‘iga muvofiq tashkil etilgan.

2. Bo‘lim Urganch davlat universitetining tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, universitet faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot resurslari orqali xalqqa muntazam, to‘liq va tezkor tarzda axborot berib borish ishlarini tashkil etishni amalga oshiradi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hay‘at qarorlari, buyruqlari, universitet Ustavi, universitet Kuzatuv Kengashi va Kengashi qarorlari, universitet rektorining buyruqlari va mazkur Nizomga muvofiq olib boradi.

4. Bo‘lim bevosita universitet rektoriga bo‘ysunadi.

II. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

1. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Zamonaviy talablarga muvofiq universitetning axborot siyosatini shakllantirish, uning yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

universitet imidjini shakllantirish va rivojlantirish, ta'lim muassasasi haqida jamoatchilik fikrini, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllar orqali o'rganish hamda unga ta'sir ko'rsatish;

axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan samarali va amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish, axborot xizmati bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar va blogerlar doirasini hamda qabul qilingan qarorlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini aholining keng qatlamlariga yetkazish, xolis va o'z vaqtida sharhlab borish maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

matbuot anjumani, brifing, media-tur kabi ommaviy axborot vositalariga axborot berishga mo'ljallangan tadbirlar tashkil etish;

ta'lim muassasasi rahbarlarining ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etish.

2. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Axborotni universitetning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlardagi sahifalarida tezkor joylashtirish va o'z vaqtida yangilab borish;

axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, universitet faoliyati yuzasidan tanqidiy-tahliliy, aholining keng muhokamasiga sabab bo'layotgan chiqishlarga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalarida, Internet jahon axborot tarmog'ida materiallar tarqatish ishlarini tashkil etish;

milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

universitet faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, zarur takliflarni ishlab chiqish va ular to'g'risida rahbariyatiga axborot berib borish;

universitetning faoliyatiga aloqador normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnini rasmiy veb-saytga joylashtirish;

universitetning faoliyatiga aloqador matnli, foto-, audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bankini shakllantirish va yangilab borish.

III. Bo'limning huquq va majburiyatlari

1. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

O'z faoliyati sohasiga oid takliflar bilan universitet Kengashiga va universitet rektoriga murojaat qilish;

tarkibiy bo'linmalardan zarur ma'lumot va hujjatlarni belgilangan tartibda olish;

o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan majlislar va yig'ilishlar o'tkazish; mazkur Nizomda belgilangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida fakultetlar, kafedralar va tarkibiy bo'linmalar hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan bevosita va bilvosita hamkorlik qilish;

bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2. Bo'lim:

Universitet Kuzatuv Kengashi hamda Kengashining qarorlari va rektorining buyruqlarida bo'limga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlashga;

o'z faoliyati haqida universitet Kengashi va universitet rektoriga muntazam ravishda axborot berib borishga;

bo'limning ish rejalarini tuzish va ularni ijrosini ta'minlashga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan hujjatlar mazmunini talabalarga matn, foto va video shaklida yetkazib borishga;

har yarim yillik natijalar bo'yicha hisobot taqdim etishga; universitet Ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi va boshqa lokal hujjatlarga rioya etishga majbur.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

IV. Bo'lim faoliyatini tashkil etish tartibi

Bo'limga universitet rektori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan rahbar boshchilik qiladi. Bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida bevosita rektorga bo'ysunadi va uning oldida hisobdordir.

Bo'lim xodimlari qoida tariqasida, jurnalistika va filologiya mutaxassisliklariga ega bo'lgan kadrlardan tashkil topadi. Bo'limga uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun boshqa yo'nalishlardan ham mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

1. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda bo'limga yuklangan vazifalar va majburiyatlar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

bo'limning ish rejasi va hisobotlarini tayyorlash uchun mas'ul hisoblanadi;

universitet rektoriga bo‘lim faoliyatiga oid muhim masalalar yuzasidan muntazam ravishda axborot beradi;

universitetning Ichki-tartib qoidalari hamda Odob-axloq kodeksi talablariga rioya etadi;

universitet va o‘ziga yuklatilgan bo‘lim faoliyat samaradorligini oshirish borasida izlanishlar olib boradi;

universitet rahbariyatiga xodimlarni rag‘batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida takliflar kiritadi;

bo‘lim xodimlaridan mehnat intizomini buzganlik, yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan tushuntirishlar oladi;

o‘z vakolati doirasida tegishli hujjatlarni imzolaydi;

bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va funksional vazifalar, aniq topshiriqlarning bajarilishi uchun har bir xodimning javobgarlik doirasini belgilaydi;

universitet rahbariyati topshiriqlari, buyruqlari va ko‘rsatmalarining xodimlar tomonidan bajarilishini tekshiradi, hujjatlarning o‘z vaqtida ijro etilishini nazorat qiladi;

o‘z vakolatlari doirasida boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2. Bo‘lim xodimlari:

O‘z faoliyatini universitet rahbariyati bilan kelishilgan va tasdiqlangan mansab yo‘riqnomalariga muvofiq amalga oshiradi.

Mazkur Nizomga muvofiq bo‘lim xodimi:

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirilishini ta‘minlaydi;

bo‘lim boshlig‘ining ko‘rsatmalarini bajaradi;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida yuklatilgan vakolatlardan chetga chiqqanliklari, shuningdek, qonunga xilof harakatlar yoki harakatsizligi, xizmat vazifalarini bajarmaganliklari yoxud lozim darajada bajarmaganliklari va xizmat etikasi qoidalari buzganliklari uchun bo‘lim xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa turdagi javobgarlikka tortiladi.

Rahbariyatning topshirig‘iga muvofiq bo‘limga boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

V. Yakuniy qoida

Bo‘limni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.